

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI  
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMIY-AMALIY MARKAZI

2023-2024 O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN  
MAKTABLARNING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN

# BIOLOGIYA

FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH  
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR



**2023-2024-O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARINING 9-SINF  
O'QUVCHILARI UCHUN NAZORAT IMTIHONI O'TKAZISH BO'YICHA  
BIOLOGIYA FANIDAN MATERIALLAR**

Ixtisoslashtirilgan maktablarining 9-sinfini tugatgan o'quvchilar biologiya fanidan Davlat ta'lif standarti bo'yicha ma'lum darajadagi kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2023–2024-o'quv yilida 9- sinflarda yakuniy imtihon yozma shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari biologiya fani bo'yicha Ixtisoslashtirilgan maktablarning 7-, 8-, 9- sinflar mavzulari qamrab olingan. Shuningdek, tavsiyada bilishga, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir o'quvchi bittadan biletni tanlab oladi. Biletda o'quvchiga 10 tadan savol beriladi.

Savollarning 4 tasi bilishga, 4 tasi qo'llashga, 2 tasi mulohazaga oid bo'ladi. Bilet savollariga javob berishi uchun **180 daqiqa** vaqt beriladi.

**BIOLOGIYA FANIDAN BILIMLARNI BAHOLASHDA TEST  
SINOVIDA QAMRAB OLGAN BIOLOGIYA FANINING  
MAZMUN SOHALARI**

Mazmun sohasi	Soni	Bilish	Qo'llash	Mulohaza	Yopiq test	Ochiq test	Tahlil qilish va to'g'ri javoblarni tanlash va muvofiqlash tirish
<b>I. Organik olamning xilma-xilligi</b>	1	1			1		
<b>II. Tiriklikning tuzilish darajalari</b>	1		1		1		
<b>III. Genetika</b>	3	3			2		1
<b>IV. Moddalar va energiya almashinuvi</b>	2	1		1	1		1
<b>V. Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari</b>	3		2	1			

## TOPSHIRIQ BO‘YICHA BAHOLASH MEZONI

### Topshiriqlar quyidagi baholash mezonlari bo‘yicha baholanadi:

- 1) Bilishga oid yopiq va bir nechta javobli testlar – 5 ball
- 2) Qo‘llashga oid ochiq, yopiq, bir nechta javobli testlar va masalalar – 10 ball
- 3) Mulohazaga oid topshiriqlar – 20 ball

#### I. Bilishga oid topshiriqlar quyidagi baholash mezonlari bo‘yicha baholanadi:

Bilishga oid		
Savol	Soni	Baholash mezoni
1	4	<p>Agar topshiriq noto‘g‘ri usulda ishlangan va javob noto‘g‘ri bo‘lsa, umumiy ballning 10% miqdorida ball;</p> <p>agar topshiriq qisman to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, umumiy ballning 50% miqdorida ball;</p> <p>agar topshiriq to‘g‘ri yondashilgan faqat javob noto‘g‘ri aniqlangan bo‘lsa umumiy ballning 70% miqdorida ball;</p> <p>agar topshiriq to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, 100%, ya’ni maksimal ball qo‘yiladi.</p>
<b>Jami: 5 ball</b>		

#### II. Qo‘llashga oid topshiriqlar quyidagi baholash mezonlari bo‘yicha baholanadi:

Qo‘llashga oid		
Savol	Soni	Baholash mezoni
2	4	<p>Agar topshiriq noto‘g‘ri usulda ishlangan va javob noto‘g‘ri bo‘lsa, umumiy ballning 10% miqdorida ball;</p> <p>agar topshiriq qisman to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, umumiy ballning 50% miqdorida ball;</p> <p>agar topshiriq to‘g‘ri yondashilgan faqat javob noto‘g‘ri aniqlangan bo‘lsa umumiy ballning 70% miqdorida ball;</p> <p>agar topshiriq to‘g‘ri bajarilgan bo‘lsa, 100%, ya’ni maksimal ball qo‘yiladi.</p>
<b>Jami: 10 ball</b>		

#### III. Mulohazaga oid topshiriqlar quyidagi baholash mezonlari bo‘yicha baholanadi:

Mulohazaga oid		
Test turi	Soni	Baholash mezoni
Tahlil qilish va xulosalash	2	<p>Agar topshiriqda biologik obyekt hodisa, jarayonlarni tarkibiy qismlarga, toifalarga, guruhlarga ajratib, qismlar orasidagi munosabatlarni, umumiy qonuniyatlarni aniqlay olsa, umumiy ballning 10% miqdorida ball;</p> <p>agar turli ko‘rinishidagi ma‘lumotlarni bir turdan ikkinchisiga,</p>


	xususiydan umumiya, umumiya dan xususiyga va murakkabdan oddiyga aylantira olsa, umumiya ballning 50% miqdorida ball; agar muammo (masala) yechimni real muammo mazmuniga ko‘chira olsa, umumiya ballning 70% miqdorida ball; agar real muammoga nisbatan uni talqin qilib topilgan yechimning muammo haqiqiy yechimiga mosligini anglay olsa, 100%, ya’ni maksimal ball qo‘yiladi.
--	---

**Jami: 20 ball**

**9 sinf**

## **Variant-1**

1. Rasmda o'sish konusi ifodalangan raqamni aniqlang. Qaysi to'qima uni hosil qiladi?




2. Berilgan misolga mos keladigan o'zaro ta'sir turini ifodalangan. Qaysi belgi retsessiv?

Ayolda mumkin bo'lgan allellar	
Erkakda mumkin bo'lgan allellar	
$I^A$	$I^A I^A$
$I^B$	$I^A I^B$
$i$	$I^A i$
	$I^B I^B$
	$I^B i$
	$i i$


  

Qon guruhlari	A	B	AB	O


3. Rasmda qaysi organoid tasvirlangan? U qanday qismlardan iborat?



4. Qirqqulqoqning rivojlanish siklida sporofit (a) va gametofitni (b) aniqlang.




5. Molekulaning A va B harflari bilan ko'rsatilgan qismlarini nomlang.



6. Organizmga berilgan uchta to‘g‘ri javobni aniqlang.

1. Yopiq turdag'i qon aylanish tizimi 2. Birlamchi tana bo'shlig'i 3. Narvon tipidagi nerv tizimi 4. Tukli epiteliyning mavjudligi 5. Jabra bilan nafas olish 6. Protonefridiy tipdagi ayirish tizimi	
--	--

7. Rasmda qanday jarayon tasvirlangan, uning biologik ma'nosini izohlang?



8. Rasmda ko'rsatilgan molekulaning xususiyatlarini aniqlang.




- 1) polimerning uchlamchi tuzilishi;
- 2) monomerlar siklik aminokislotalar lizin va metionin;
- 3) birlamchi tuzilish monomerlar orasidagi fosfodirefir bog'lanishlari natijasida hosil bo'ladi;
- 4) transkripsiya jarayoni sintez paytida UAA kodoni bilan yakunlanadi.

9. Ma'lum sharoitda 110,5 nm uzunlikdagi DNK molekulasi Eco.RI restriktaza fermenti ta'sirida ABC bo'lakka bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK molekulasi dagi vodorod bog'lar soni dastlabki vodorod bog'lar sonidan 2% ga kam bo'lsa dastlabki DNK molekulasi dagi A-T orasidagi vodorod bog'lar sonini toping.

10. Fermentativ reaksiya jadvalini o'rganing. Tavsiya etilgan jadvalni tahlil qilish asosida tuzilishi mumkin bo'lgan bayonotlarni tanlang. Javobda tanlangan bayonotlar raqamlarini yozing.


Reaksiya tezligi



1. Harorat ko'tarilganda fermentativ reaksiya tezligi doimiy ravishda oshadi.
2. Fermentativ reaksiya tezligi taxminan  $36^0$  C haroratda bo'ladi.
3. Harorat  $25^0$  C dan pasayganda, reaksiya tezligi keskin pasayadi.
4. Harorat  $60^0$  C dan  $50^0$  C gacha pasayganda, reaksiya tezligi pasayadi.

## Variant-2

1. Ushbu tuzilmaga xos xususiyatlarni izohlang.



2. Lui Paster tajribasini izohlang. Ushbu tajribaning hozirgi kundagi amaliy ahamiyati tushuntiring?



3. Berilgan jadvalni to‘ldiring.


Organizmlar	Ko‘payish usuli	Organizmlar	Ko‘payish usuli
Xlorella			Kurtaklanish
	Shizogoniya	Hilol	
Molodilo		Povituxa	
	Piyozbosh		Meyoz
	Tugunak	Elodiya	

4. Organizmlardagi uzun g‘ovak suyaklar sonining miya qutisi suyaklari sonidan farqi va qaysi umurtqalar soniga tengligini yozing?


5. Nerv sistemasiga tegishli tushunchalarni ularning mazmuni bilan muvofiqlashtiring.  
**A-neyron, B-akson, D-dendrit, E-nerv tuguni, F-nerv, G-neyrogliya hujayra, H-retseptor**

1-neyronning shoxlangan kalta o'simtasi; 2-nerv to'qimasi yo'ldosh hujayrasi; 3-neyronning umumiy qobiq bilan o'ralgan uzun o'simtalari; 4-nerv to'qimasining asosiy hujayrasi; 5-markaziy nerv sistemasidan tashqarida joylashgan neyronlar tanasi to'plami; 6- neyronlarning shoxlanmagan o'simtasi; 7-sezuvchi nerv uchi.


6. Rasmga e'tibor qarating. 4- raqam nimani ifodalashini aniqlang?



7. Quyidagi rasmda tuxum hujayraning urug'lanish jarayoni tasvirlangan. 4- raqam ostida nima tasvirlangan?



8. Sxemada tasvirlangan DNK fragmentidagi umumiyl vodorod bog'lar sonini aniqlang. Izoh: nuklein kislota molekulasida nukleotidlar o'zaro fosfodiefir bog'lar orqali bog'langan.



9. Ma'lum sharoitda 105,4 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHI restriktaza fermenti ta'sirida ABCD bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK molekulasisidagi vodorod bog'lar soni dastlabki vodorod bog'lar sonidan 3,75% ga kam bo'lsa, dastlabki DNK molekulasisidagi G-S orasidagi vodorod bog'lar sonini toping.


10. Tut ipak qurtining tuxumlarida po'stlog'ining kulrang bo'lishi oq rangi ustidan to'liq dominantlik qiladi. Tuxumlari kulrang bo'lgan ipak qurtining urg'ochi kapalaklari oq rangli tuxumlardan chiqqan erkak kapalaklar bilan chatishdirilganda, birinchi avlodda olingan kapalaklar kulrang tuxumlar qo'ygan. Birinchi avlod kapalaklari o'zaro chatishdirilganda esa ikkinchi avlodda olingan kapalaklar qo'ygan tuxumlarning 75% i kulrang va 25% i oq rangda bo'lgan. Birinchi avlodda olingan kapalaklar dastlabki chatishdirish uchun olingan kapalaklar bilan qayta chatishdirilsa, keyingi avlodda o'r ganilayotgan belgining irsiylanishi bo'yicha qanday natija olish mumkin?

### Variant-3


1. Ushbu rasmida qanday jarayon ifodalangan. Rasmida berilgan organizmning ayirish sistemasini izohlang.




2. Jadvalga mitoz jarayonning bosqichlari tasvirlangan. Har bir bosqichda qanday jarayonlar sodir bo‘ladi.



3. Ushbu rasm asosida DNK qo‘sh spiralida vodorod bog‘lar va fosfodiefir bog‘lar qanday hosil bo‘lishini izohlang.



4. Rasmda tasvirlangan organizmning nafas olish xususiyatlarini izohlang.



5. Nukleotidlar umumiy sonining 20% ni tashkil etuvchi DNK molekulasining bir zanjirining pirimidin asoslarining umumiy soni 600 ta. Shu DNKnинг fosfodiefir bog‘lar sonini aniqlang.


6. Ontogenezning o‘ziga xos xususiyati va u xarakterli bo‘lgan organizmlarni muvofiqlashtiring.

XUSUSIYAT	ORGANIZMLAR
A) kurtaklash orqali ko‘payish B) organ tizimlarining mavjudligi C) diffuz turdagি nerv tizimi D) uchta murtak qatlamning rivojlanishi E) ikki qavatli murtak qatlamning rivojlanishi	1) Bo‘g‘imoyoqlilar 2) Bo‘shliqichlilar

7. Rasmda ifodalangan organoidning tuzilishi va funksiyasini aniqlang.

	1) dissimilatsiyaning ikkinchi bosqichida ishtirok etadi; 2) ichki membranada ko‘plab fermentlar mavjud; 3) DNKga ega; 4) fotosforlanishda ishtirok etadi; 5) bo‘linish orqali ko‘payadi; 6) hayotning barcha hujayrali shakllarida mavjud.
---	--

8. Quyida berilgan rasmlarni izohlang.



9. Ma'lum bir genning kodlovchi qismida bir nechta mutatsiyalar aniqlandi. Mutatsiyadan oldin matritsa zanjiriga komplementar zanjirdagi nukleotidlar quyidagicha joylashgan: **ATGACAGCTGCGGAAATG**

Nº	A	T	G	A	C	A	G	C	T	G	C	G	G	A	A	A	T	G
1-mutatsiya				T														
2-mutatsiya									C									
3-mutatsiya													C					
4-mutatsiya																		A

a. Mutatsiya natijasida sintezlangan oqsildagi aminokislotalarni aniqlang.

b. Mutatsyaning oqsil funksiyasiga ta'sirini aniqlang (neytral, letal).

c. Bu turdagи mutatsiyalar hayotning qaysi darajasida ro'y beradi?


10. Berilgan organizmlar ko'payish usulini aniqlang va bu ko'payish turining evolyutsiyadagi ahamiyatini izohlang.

Tirik organizmlar	Ko'payish usuli	Tirik organizmlar	Ko'payish usuli
Xlorella		Qirqqulqoq	
Spirogira		Tufelka	

		Evglena	
Qalpoqchali zamburug‘		Bezgak paraziti	
		Suv o‘tlari	
Yo‘sin		Ignatananalilar	
Achitqi zamburug‘		Amyoba	

## Variant-4


1. Tiriklikning molekula darajasini tushuntiring va unda qanday jarayonlar amalga oshadi?
2. Meyoz bilan mitozning qanday o‘xshashlik va farqli tomonlari bor? Rasmdagi G2 jarayoniga ta’rif bering. Javobingizni asoslang.



3. 8- raqam ostida ko‘rsatilgan tasvirni ta’riflang. Xromosomalar to‘plamini aniqlang. Javobingizni asoslab bering.



4. Quyidagi rasmni ta’riflang. Tasvirlangan jarayonning bosqichlarini yoriting.



5. Quyidagi jadvalda organoidlar tuzilishi berilgan, ularning muvofiqlashtiring.


1	Hujayra umumiy hajmining 30-50% ni tashkil etadi	A	Hujayra markazi
2	Zich joylashgan qopchalar tizimi, vakuolalar va pufakchalardan tashkil topgan	B	Lizosoma
3	Katta va kichik yassi tanachalardan iborat	V	Golji majmuasi
4	Membranasida gidrolitik fermentlar joylashgan	S	Mitoxondriya
5	Ikki qavat membranalardan iborat, ichki qavat membranalari kristalar deb ataladi	D	Plastida
6	Ichki qavat membranalari stroma deb ataladi	G	Vakuola
7	Devori 9 triplet naychalardan tashkil topgan	J	Ribosoma
8	Tarkibi organik birikmalar va tuzlardan tashkil topgan	E	Endoplazmatik to‘r

	1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-	8-
--	----	----	----	----	----	----	----	----

6. Quyidagi jadvalda berilgan aminokislotalarni guruhlari bilan muvofiqlashtiring.

1	Glitsin, alanin	A	Dikarbon kislotalar
2	Aspartat, asparagin	B	Aminokislotalar
3	Lizin, arginin	D	Monoaminokarbon kislotalar
4	Fenilalanin, tirozin	E	Aromatik aminokislotalar
5	Glitsin, triptofan	F	Geterosiklik aminokislotalar
6	Prolin, oksiprolin	H	Diaminokislotalar
1-	2-	3-	4-
			5-
			6-

7. Quyidagi rasmni izohlang.



8. Tana vazni 70 kg bo‘lgan Temurning kunlik ratsionida yog‘ va oqsil miqdori teng. Uglevodlar miqdori oqsil va yog‘larning umumiy miqdoridan 2,5 baravar ko‘p. Kundalik ratsiondagi uglevodlarning potentsial energiyasi 2050 kkal. Biopolimerlardan ajralib chiqadigan energiyani (kkal) aniqlang.

9. Odamlarda talassemiya to‘liq bo‘limgan dominantlik turiga ko‘ra dominant gen ta’sirida irsiylanadi. O‘roqsimon hujayrali anemiya retsessiv xususiyatdir. Bu belgilarning genlari avtosomalarda joylashgan va mustaqil ravishda nasldan naslga o‘tadi. Gomozigota holatdagi bu belgilar embrion davrida o‘limga olib keladi. Geterozigotalarda esa kasallik engil shaklda davom etadi. Sog‘lom bolalarning tug‘ilish ehtimolini (%) digeterozigota ota- onalardan faqat ikkinchi belgi bo‘yicha aniqlang.

10. Quyidagi jadvaldan foydalanib savollarga javob bering.

Don tarkibidagi ba'zi organik moddalarning tarkibi va ularning kaloriyasi

Yormalar	Kaloriya, kkal	100 g quruq mahsulot uchun tarkibi, %		
		Oqsil	Lipidlar	Uglevodlar
Grechka yormasi	335	12,6	3,3	62,1
Suli yormasi	366	11,9	7,2	69,3
Tariq yormasi	348	11,5	3,3	66,5
Irmik yormasi	328	10,3	1,0	67,7

- a) Jadvalda ko'rsatilgan yormalardan qaysi birida eng ko'p oqsil miqdori uchraydi?
- b) Jadvalda ko'rsatilgan donalardan qaysi biri eng ko'p miqdordagi yog'lar uchraydi?
- c) Jadvalda ko'rsatilgan donlarning qaysi birida uglevod miqdori 67 %dan oshadi?

## Variant-5

1. Hujayra darajasiga tegishli bo'lgan tushunchalarni aniqlang.

Hujayra darajasi
1) mitoxondriyaning bo'linib ko'payishi; 2) azotning davriy aylanishi; 3) silliq endoplazmatik to'rda uglevod sintezining amalga oshishi; 4) exinokokning finna hosil qilishi; 5) manjur kenja turining hosil bo'lishi.

2. Noallel genlarning o'zaro ta'siri natijasida F2 da belgilarning ajralishiga doir bilimlaringizga asoslangan holda jadvalni to'ldiring.

Nº	Ta'sir turi	Organizm	Belgilar	Genotip	F2 da Ajralish nisbati
1	Komplementar				9:7
2	Komplementar	qovoq shakli	gardishsimon yumaloq cho'zinchoq		9:6:1


3	Komplementar				9:3:3:1
---	--------------	--	--	--	---------

3. Berilgan organizmlar ko‘payish usulini aniqlang va bu ko‘payish turining evolyutsiyadagi ahamiyatini izohlang.

Tirik organizmlar	Ko‘payish usuli	Tirik organizmlar	Ko‘payish usuli
Xlorella		Qirqquloq	
Spirogira		Tufelka	
		Evglena	
Qalpoqchali zamburug‘		Bezgak paraziti	
		Suv o‘tlari	
Yo‘sin		Ignatanalilar	
Achitqi zamburug‘		Amyoba	

4. Sholi o‘simligi spermiyalaridagi xromosomalar soni makkajo‘xori xromosomalarining n to‘plamidan 2 taga ortiq. Agar bir tup sholi o‘simligining 1 ta shingilida 27 ta don hosil bo‘lsa, urug‘langan markaziy hujayralarda jami xromosomalar sonini aniqlang?


5. Rasmda ko‘payishning qaysi turi va uning qaysi fazasi tasvirlangan? Ushbu davrda xromosomalar to‘plamini (n), DNK molekulalari sonini(c) ko‘rsating. Javobni asoslang.




6. Hujayraning bo‘linishi yuzasidan olgan bilimlaringizga tayangan holda jadvalni to‘ldiring.

<b>Meyoz sikli</b>		<b>Sog‘lom odam</b>			<b>Shershevskiy terner sindromi</b>		
		Jami xromosoma	Jinsiy xromosoma	Autosoma	Jami xromosoma	Jinsiy xromosoma	Autosoma
<b>Interfaza</b>							
1	G1-sintezga tayyorgarlik davri						
2	S-sintez davri						
3	G2-sintezdan keyingi davr						
<b>Meyoz bosqichlari</b>							
1	Profaza I						
2	Metafaza I						

7. Fotosintez jarayonida hosil bo'lgan, so'roq belgisi bilan ifodalangan moddani aniqlang.




8. Quyida berilgan rasmda qanday jarayon boradi? DNK qo'sh zanjirida 600 dezoksiriboza bo'lsa, nechta nukleotiddan iborat RNK sintezlanadi?



9. Xromasomlar to'plami to'g'ri berilgan javoblar sonini aniqlang.

Hujayralar nomi	
murtak xalta	8n
Endosperm	2n
Mikrospora	N
makrosporasit	N
tuxum hujayra	N

10. Quyidagi maydalanish jarayoniga qanday o‘zgaradi.



- 1) blostamerlar soni;
- 2) har bir hujayraning sitoplazma miqdori;
- 3) har bir hujayraning xromosoma holati

### Variant-6

1. Berilgan organizmlar va ko‘payish usullari misolida jadvalni to‘ldiring

Organizmlar	Ko‘payish usuli	Organizmlar	Ko‘payish usuli
Xlorella			Kurtaklanib
	Shizogoniya	Hilol	
Molodilo		Povituxa	
	Piyozbosh		Meyoz
	Tugunak	Elodiya	


2. Hujayraning bo‘linishi yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib jadvalni to‘ldiring.

Meyoz sikli		Sog‘lom odam			Daun sindromi		
		Jami xromosoma	Jinsiy xromosoma	Autosoma	Jami xromosoma	Jinsiy xromosoma	Autosoma
<b>Interfaza</b>							
1	G1- sintezga tayyorgarlik davri						
2	S-sintez davri						
3	G2- sintezdan keyingi davr						
<b>Meyoz bosqichlari</b>							
1	Profaza I						
2	Metafaza I						


3.(A+T) - (G+S) =50 va umumiy vodorod bog‘lar soni 300 bo‘lsa, DNK fragmenti uzunligini aniqlang. (qo‘shti nukleotidlar orasidagi masofa 0,34nm)

4. Berilgan organizmlar ko‘payish usulini aniqlang va bu ko‘payish turining evolyutsiyadagi ahamiyatini izohlang.

5. Quyida berilgan rasmda qanday jarayon boradi? DNK qo'sh zanjirida 600 dezoksiriboza bo'lsa, nechta nukleotiddan iborat RNK sintezlanadi?






6. Umurtqali konsumentlarni aniqlang.




7. Jadvalni to'ldiring. O'simliklarni hayotiy shakllarini yozing.

Zubturum Teresken Uchqat Baobob Kovrak Lola Bodring Qulupnay	
---	--


8. Jadvaldag'i to'qimalar tuzilishi haqida izoh yozing.

To‘qimalar	Tuzilishi
	
	
	
	

9. Quyidagi rasmdan foydalanib 200 ta ulotriks ipi hosil bo‘lgan bo‘lsa, nechta izogameta ishtirok etganligini aniqlang?



10. Quyida berilgan atamalarni klasterga to‘g‘ri joylashtiring: so‘lak bezlari, ovqat hazm qilish kanali, yo‘g‘on ichak, 12 barmoqli ichak, bez organlari, og‘iz bo‘shlig‘i, oshqozon, halqum, qizilo‘ngach, me’da osti bezi, oshqozon bezlari.



## Variant-7

1. Tibbiyotning rivojlanishida hissa qo‘sghan olimlar ishini jadvalda yozing.

Nº	Olimlar	Biologiya fani rivojiga qo‘sghan hissasi
1	Gippokrat	
2	Aristotel	

2. Hujayra va organizmning hayotiy xossalariini izohlang.

Moddalar almashinuvi

---

Qo‘zg‘aluvchanlik

---

Ko‘payish

---

Harakatlanish

---


Rivojlanish

---

3. Komilning ovqat ratsionida oqsil, yog‘ va uglevodning umumiy miqdori 700 g bo‘lib, oqsildan ajralgan energiya 410 kkal ni tashkil etadi. Agar ovqat tarkibidagi yog‘dan hosil bo‘lgan energiya oqsilning parchalanishidan hosil bo‘lgan energiyadan 520 kkal ga ko‘p bo‘lsa, bir kecha-kunduzda hosil bo‘lgan jami energiyaning qanchasi (kkal) ertalabki ovqatlanishdan hosil bo‘lgan? (Ratsional ovqatlanishning yuqori foiziga amal qilingan)

4. Ma’lum sharoitda 105,4 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHI restriktaza fermenti ta’sirida ABCD bo‘laklarga bo‘lindi. Hosil bo‘lgan barcha DNK molekulasidagi vodorod bog‘lar soni dastlabki vodorod bog‘lar sonidan 3,75% ga kam bo‘lsa, dastlabki DNK molekulasidagi G-S orasidagi vodorod bog‘lar sonini aniqlang.


5. Quyida berilgan tegishli raqamlardagi organizm qismlarini nomlang.



6. Energiya almashinuvining 3-bosqichda 162 molekula ATF hosil bo‘lgan bo‘lsa, 2-bosqicha ATF da to‘plangan energiya (kj) miqdorini (a) va shu vaqtida

xloroplastlarda sintezlanga ATP mol miqdorini(b) aniqlang.

7. Rasmda tasvirlangan o'simliklarning vegetativ ko'payish usullarini to'g'ri aniqlang.



8. 1-, 2-, 3- raqamlar bilan berilgan organoidlar va ularning xususiyatlarini muvofiqlashtiring.

- 1) 
- 2) 
- 3) 


<b>№</b>	<b>Xususiyatlar</b>
A	mikronaychalardan tuzilgan
B	energiya almashinuvida ishtirok etadi
C	lizosomalarni hosil qiladi
D	membranasiz organoid
E	fikotsianga ega

9. Drozofila pashshasida tananing kulrang, ensiz qanot va tukchalarning bo'lishi dominant holda irsiylanadi. Tana rangi va qanot shaklini aniqlovchi genlar to'liq birikkan autosom genlardir. Tukchalarning mavjudligi boshqa autosomada joylashgan gen orqali aniqlanadi. Trigomozigota sariq rangli, ensiz qanotli va tukchalarsiz drozofila barcha belgilari bo'yicha gomozigota kulrang tanali, normal qanotli, tukchalarga ega drozofila bilan chatishtirildi. F1 duragaylarini o'zaro chatishtirishdan olingan avlodning qancha qismi kulrang tanali, ensiz qanotli, tuksiz bo'ladi?

10. Suyak chiqqanda 1-yordam ko'rsatishni to'g'ri tashkil qilish texnikasini tasvirlang.

## Variant-8

1. Quyida berilgan tegishli raqamlardagi organizm qismlarini nomlang.




2. Jadvalni to‘ldiring.

Hujayraning organik tarkibi	Hujayraning anorganik tarkibi

3. Qonda  $\gamma$ -globulin sintezlanmasligi oqibatida bolalarda immunitet yetishmasligi vujudga keladi. Bu kasallik agammaglobulinemiya deb nomlanadi. Ushbu kasallikni keltirib chiqaruvchi genning bir turi autosomada, ikkinchi turi jinsiy X- xromosomada joylashgan. Kasallik belgisi ikkala holda ham retsessiv irlsiylanadi. Ona ikki belgi bo‘yicha geterozigotali, ota sog‘lom va uning qarindoshlarida kasallik kuzatilmagan bo‘lsa, tug‘ilgan qizlarning necha foizi fenotip jihatdan sog‘lom bo‘ladi?


4. Muskullarning statik va dinamik ish faoliyatini tushuntiring.



5. Biologyaning ilmiy-tadqiqot metodlari yordamida hal etiladigan muammolarni aniqlang.

<b>Biologyaning ilmiy tadqiqot metodlari</b>	<b>Mazkur metodlar yordamida hal etiladigan muammolar</b>
Kuzatish metodi	
Taqqoslash metodi	
Tarixiy metod	
Eksperimental metodi	

6. Jadvalning chap ustunidagi rasmlar hayotning qaysi tuzilish darajasiga kiradi?

<b>№</b>	<b>Biologik ob'ekt</b>	<b>Hayotning tuzilish darjasи</b>	
1			
2			
3			
4	$\begin{array}{c} \text{O} \\ \parallel \\ \text{H}-\text{OH} \\   \\ \text{HO}-\text{H} \\   \\ \text{H}-\text{OH} \\   \\ \text{H}-\text{OH} \\   \\ \text{CH}_2\text{OH} \end{array}$ D-Glucose	$\begin{array}{c} \text{O} \\ \parallel \\ \text{HO}-\text{H} \\   \\ \text{H}-\text{OH} \\   \\ \text{HO}-\text{H} \\   \\ \text{HO}-\text{H} \\   \\ \text{CH}_2\text{OH} \end{array}$ L-Glucose	
5			
6			

7. O'zgaruvchanlik va uning turlariga jadvalning ajratilgan kataklariga izoh yozing.

## O‘zgaruvchanlik

Fenotipik o‘zgaruvchanlik		Genotipik o‘zgaruvchanlik	
Modifikatsion o‘zgaruvchanlik	Ontogenetik o‘zgaruvchanlik	Kombinativ o‘zgaruvchanlik	Mutatsion o‘zgaruvchanlik

8. Quyonlarda qulinqing uzunligi 2 juft polimer genlar faoliyatiga bog‘liq.  $A_1A_1A_{2a_2}$  (24sm) erkak va  $A_1a_1a_{2a_2}$  (16 sm) urg‘ochi quyonlar chatishtirilsa, tug‘iladigan quyonlarning necha foizining qulqlari 20 sm li bo‘ladi?

<b>Berilgan:</b>	
Fenotip	Genotip
28 cm	
24 cm	
20 cm	
16 cm	
12 cm	

### **Yechish:**


<b>P</b>	<b>Fenotip</b>	28 cm		12 cm	
	<b>Genotip</b>				
<b>F<sub>1</sub></b>	<b>Fenotip</b>	20 cm			
	<b>Genotip</b>				
<b>F<sub>2</sub></b>	♂				
	♀				

9. Odam sutka davomida iste'mol qilgan 500 g oqsilning 70%i hujayralardagi oqsil sinteziga sarf bo'ldi, qolgani energiya almashinuvi jarayonida to'liq oksidlandi. Iste'mol qilingan 40 g lipidning barchasi dissimilatsiya uchun sarflangan. Kun davomida iste'mol qilingan 200 g uglevodning 3%i glikogenga zahiralangan va qolgan qismi energiya hosil qilish uchun sarflangan. Energiya almashinuvida uglevod, oqsil va lipid oksidlanishidan hosil bo'lgan energiya miqdorini(kkal) aniqlang.

10. Ma'lum sharoitda 105,4 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHI restriktaza fermenti ta'sirida ABCD bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK molekulasidagi vodorod bog'lar soni dastlabki vodorod bog'lar sonidan 3,75% ga kam bo'lsa dastlabki DNK molekulasidagi A-T orasidagi vodorod bog'lar sonini toping.

## Variant-9

1. Quyida berilgan tegishli raqamlardagi organizm qismlarini nomlang.



2. O'simlik va hayvon hujayrasi organoidi va ularning farqini yozing.

O'simlik hujayrasi	Hayvon hujayrasi	Farqlari


3. Spaniel it zotlarida yungning qora bo‘lishi jigarrang ustidan, kalta bo‘lishi uzun bo‘lishi ustidan to‘liq dominantlik qiladi. aB tipdagi gametalari hayotchan bo‘lmagan digeterozigota urg‘ochi va erkak itlar o‘zaro chatishtirildi. Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalanib, quyidagilarni aniqlang:

- a) avlodda olingan itlarning fenotipik guruhlari nisbati;
- b) qora uzun yungli itlarning genotiplari.

4. Jadvalning birinchi ustunida berilgan ekologiyaning bo‘limlariga jadvalning ikkinchi ustunidan mos keluvchi o‘rganish obyektlarini muvofiqlashtiring.

<b>Bo`limlar</b>	<b>O‘rganish obyekti</b>
	<b>A)</b> Organizm hayotiy sikli,
<b>1. Demekologiya</b>	<b>B)</b> Individlar sonining o‘rgarish sabablari
<b>2. Autikologiya</b>	<b>C)</b> Ekologik sistemalar o‘zgarishi
<b>3. Sinekologiya</b>	<b>D)</b> Inson svilizatsiyasi natijasi ekologik o‘zgarishi
	<b>E)</b> Biogetsenozlar tuzilishi va xususiyatlari

5. Quyidagi rasmda berilgan disaxarid qaysi monosaxaridlarning birikishidan hosil bo‘lgan?



6. Uglevodlarning xususiyatlari mos ravishda tegishli raqamlarni yozing.

1. Riboza
2. Dezoksiriboza
3. Gulukoza
4. Fruktoza
5. Saxaroza
6. Maltoza
7. Laktoza
8. Kraxmal
9. Glikogen
10. Kletchatka

<b>Nº</b>	<b>Uglevodlarning xususiyatlari</b>	<b>Raqam</b>
1	Hayvon kraxmali	
2	Mevalarda, nektarlarda, asalda bo‘ladi	
3	Sut shakari	
4	Ptialin, amilaza fermentlari ta`sirida parchalanadi	

5	Uzum shakari, qon qandi	
6	Qand lavlagi shakari.	
7	DNK nukleotidlarini tarkibida bo‘ladi.	
8	Meva shakari.	
9	Don shakari	
10	Kraxmal, glikogen, selilozaning monomeri.	
11	ATF tarkibida bo‘ladi.	
12	Ribozadan farq qilib molekulasida 1ta kislarod atomi yetishmaydi.	


7. Quyidagi jadvaldan foydalaniib to‘g‘ri fikrlarni aniqlang.

<b>Bir kishi uchun kunlik taxminiy suv almashinushi (litrda)</b>			
<b>Suv</b>	<b>Suv miqdori (litr)</b>	<b>Suvni organizmdan chiqarishda ishtirok etuvchi organlar</b>	<b>Suv miqdori (litr)</b>
Suyuq oziq mahsulotlari tarkibida	1,2	Buyraklar	1,4
		O‘pkalar	0,5
Qattiq oziq mahsulotlari tarkibida	1,0	Teri	0,5
		Ichaklar	0,1
Jami	2,2		2,5

- 1) Odam kuniga 2,2 litr suv iste’mol qiladi.
  - 2) Odam kuniga 1,2 litr suv iste’mol qiladi.
  - 3) Suv organizmdan ovqat hazm qilish organlari, teri, nafas olish organlari va ayirish orqali chiqarib yuboriladi.
  - 4) Ovqat hazm qilish organlari, o‘pka va teriga qaraganda buyraklar orqali kamroq suyuqlik ajratiladi.
  - 5) Organizmga qabul qilinadigan suv miqdori organizmdan ajratiladigan suv miqdoridan ko‘p.
8. Jadvalni to‘ldiring.

<b>Kasalliklar</b>	<b>Belgilari</b>	<b>Sabablari</b>
Daun sindromi		
Klaynfeldter sindromi		
Shereshevskiy-Terner sindromi		

9. Rasmda erkaklik gametalarining rivojlanish bosqichi sxema asosida ko'rsatilgan? So'roq belgisi o'rniغا mos keluvchi so'zni aniqlang.



10. Havorang patli to'ti oq patli to'ti bilan chatishtirilsa, birinchi avlodda patning havorang belgisi dominantlik qiladi, sariq patli to'tilar bilan oq patli to'tilarni chatishtirganda birinchi avlodda patning sariq rang belgisi dominantlik qiladi. Havorang patli to'tilar bilan sariq patli to'tilarni chatishtirishda olingan birinchi avlod to'tilarining pati yashil rangda bo'ladi. Yashil to'tilarning erkak va urg'ochilarini chatishtirib olingan ikkinchi avlodda esa, xuddi diduragay chatishtirishga o'xshash 4 ta fenotipik sinf, ya'ni 9 ta yashil, 3 ta havorang, 3 ta sariq, 1 ta oq patli to'tilar rivojlanadi. Ota-onada va avlodlarning genotiplarini aniqlang.

<b>Berilishi:</b>	
Fenotip	Genotip


  

<b>Yechilishi:</b>			
P	fenotip		
	sariq		havorang
	genotip		

<b>F<sub>1</sub></b>	<b>fenotip</b>	 <b>yashil</b>			
	<b>genotip</b>				
<b>F<sub>1</sub></b>	♀				
	♂				
<b>Javobi:</b>					

## Variant-10

1. Ushbu tuzilmaga xos xususiyatlarni izohlang.




2. Lui Paster tajribasini izohlang. Ushbu tajribaning hozirgi kundagi amaliy ahamiyati tushuntiring?
3. Berilgan organizmlar va ko‘payish usullari misolida jadvalni to‘ldiring


Organizmlar	Ko‘payish usuli	Organizmlar	Ko‘payish usuli
-------------	-----------------	-------------	-----------------

Xlorella			Kurtaklanib
	Shizogoniya	Hilol	
Molodilo		Povituxa	
	Piyozbosh		Meyoz
	Tugunak	Elodiya	


4. Rasmda keltirilgan organizmlarga xos xususiyatni aniqlang.




5. Rasmda odam organizmida issiq ta’sirga nisbatan paydo bo‘luvchi refleks yoyi ketma-ketligi tasvirlangan. Rasmda 4- raqami bilan ko‘rsatilgan refleks yoyining tarkibiy qismi uchun xos bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlang.




6. Rasmga e’tibor qarating. 4- raqam nimani ifodalashini aniqlang?



7. Quyidagi rasmda tuxum hujayraning urug‘lanish jarayoni tasvirlangan. 4- raqam ostida nima tasvirlangan?



8. Sxemada tasvirlangan DNK fragmentidagi umumi vodorod bog‘lar sonini aniqlang.  
Izoh: nuklein kislota malekulasida nukleotidlar o‘zaro fosfodiefir bog‘lar orqali bog‘langan.




9. DNK tarkibida A nukleotidlari 112 ta bo‘lib, umumiy nukleotidlarni 40% ni tashkil qiladi. Shu DNK mutatsiyaga uchragandan keyin undan i-RNK sintezlangan. Shu i-RNK tarkibidagi S lar soni mutatsiyadan oldingi DNKnинг bitta zanjiridagi G lar soniga teng bo‘ldi. G lar soni esa mutatsiyadan oldingi DNK tarkibiga kiruvchi G-S orasidagi H- bog‘lar soniga teng bo‘ldi. Shu i-RNK dagi A va U lar soni o‘zaro teng bo‘lib, umumiy nukleotidlarni 30% ni tashkil etadi. Mutatsiyaga uchragan DNK tarkibiga kiruvchi S lar sonini va T lar sonini umumiy yig‘indisini toping.


10. Mushuk karyotipida 36 ta autosoma xromosomalari mavjud. Ovogenezning ko‘payish davri (1) va yetilish davri oxirida (2) hujayralardagi jami xromosomalar (n) va DNK molekulalari (c) sonini aniqlang.

## Variant-11


1. Qushlarda jinsning irsiyylanishi qonuniyatlarini tushuntiring.



